



BERDAQ XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISHGA QARATILGAN ISHLAR

Raximova Azizabonu Akmalovna

Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti Davolash ishi va tibbiy
pedagogika fakulteti

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-fevral 2023 yil

Ma'qullandi: 20-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 23-fevral 2023 yil

KEY WORDS

*adabiyolashtirish, xalq og'zaki ijodi,
adabiyoti an'analari.*

ABSTRACT

*Mazkur maqolada Berdaq xotirasini abadiylashtirishga
qaratilgan ishlar, Berdaq ijodi xalq og'zaki adabiyoti
an'analari, Berdaq ijodi xalq og'zaki adabiyoti an'analari
haqida batafsil bayon qilingan.*

Barchamizga ma'lum, bugungi kunda mamlakatimizda Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida milliy ma'naviyatimizni, adabiyotimizni yanada rivojlantirish, adabiyotimizning buyuk namoyondalariga bag'ishlab yodgorliklar o'rnatish, ularning xotiralarini abadiylashtirish, ulug' adiblarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil etish, xiyobonlar bunyod qilish bo'yicha katta ezgu ishlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Shu jumladan, Prezidentimiz tomonidan Toshkent shahar Mirobod tumanining Nukus va T.G.Shevchenko ko'chalari chorrahasida qoraqalpoq klassik shoiri Berdaqning haykalini o'rnatish tashabbusi ilgari surilgan edi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan ijodkor ziyolilar, olimlar, yozuvchi va shoirlarimizning bildirgan tavsiyalarga muvofiq shoirning yangi haykali tayyorlandi va haykal joriy yil 9 iyul kuni mazkur ko'chalar chorrahasiga o'rnatildi.

Haykal tagida "Qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri Berdaq Qarg'aboy o'g'li" degan qatorlar aks ettirildi. Haykalning tayyorlanishi va o'rnatilishi jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston badiiy akademiyasi, Toshkent shahar hokimligi mutasaddi va ma'sul xodimlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi rahbariyati bevosita ishtirok etdi. Albatta, bu haykalning o'rnatilishi yurtboshimiz rahnomaligida bu borada amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning uzviy davomi hamda buyuk shoirimizga ko'rsatilayotgan yuksak hurmat-ehtirom belgisi bo'lib hisoblanadi.

Natijalar;

Uning she'rlari, dostonlarida qoraqalpoq xalqining 18—19-asrlardagi ijtimoiy hayoti o'z ifodasini topgan. U o'z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho bergan. Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi.

Berdaq va boshqa qoraqalpoq adiblari ijodining ushbu jihatlarini yoshlar ongiga chuqur singdirish va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida qaror bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi davlat muassasasi tashkil etilmoqda.

Muzey Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Nukus shahar, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy manzilida joylashgan binosida joylashtiriladi. Ushbu muzeyni tashkil etish to'g'risidagi qaror qoraqalpoq adabiy muhiti rivojida va yosh ijodkorlar avlodining yetishib chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama:

XIX-XX asrlarda ko'pgina fikru-dunyosi keng va jahonga mashxur shaxslar yashab o'tgani ma'lum. Garchi bu davrlarda G'arbgga nisbatan rivojlanish oqsayotgan bo'lsada, yetuk insonlar talaygina yetishib chiqqan edi. Bunday yetuk insonlar qatoridan alohida o'rin egallagan siymo, shubhasiz bu qoraqalpoq adibi Berdaq hisoblanadi. Bu mutafakkir merosini o'rganishimizdan maqsad esa ilm, ma'naviyat peshvosi, ruhiy murabbiyimiz, oddiy xalqning bulbuli, bo'lib kelayotgan yetuk shoir bo'lmish Berdaq, tariximiz va ma'naviyatimizning ajralmas qismi ekanligini yanada teranroq anglash, hamda uning ijodiyotini o'rganish davlatimiz yosh avlodlarining ongu-shuurini tarbiyalashda muhim omil ekanligini bilishdan iboratdir.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Berdaq ijodi xalq og'zaki adabiyoti an'alariga yaqin turadi. Adib ijodining serqirraligi, asarlarining g'oyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqalpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallagan. Uning ko'pgina asarlari o'zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan.

Adabiyotlar ro'yxati va metodologiya:

1. Tulyakov E. Taraqqiyot strategiyasi markazi materiallari asosida. 2020.
2. Fayzullayev T, Sarimsoqov A. Mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. - Namangan, 2013.
3. Abdullayeva.M.H, Abdurashidov.M, Abilov.U, va boshqalar. Falsafa qisqacha izohli lug'at. T.: Sharq-2004.

INNOVATIVE
ACADEMY